

ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ASARINING INGLIZCHA TARJIMASIDA OT SO’Z TURKUMINING QANDAY TARJIMA QILINGANLIGI TO’G’RISIDA

Abdullayeva Mohinur

Urganch davlat universiteti Magistratura bo’limi

Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjimashunoslik

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning Mehrobdan chayon asarining inglizcha tarjimasidagi ot so’z turkumiga bog’liq so’zlarning qay darajada to’g’ri va ta’sirli tarjima qilinganini yoki ekvivalenti topilganini o’rganishga bag’ishlangan. Tarjima jarayonida so’zni to’g’ri tanlash asarni xuddi o’zini asl nusxasidek qilib yetkazishga yordam beradi va o’quvchining qiziqishini yanada oshiradi.

Абстракт. Данная статья посвящена изучению правильного и эффективного перевода слов, относящихся к существительным, в английском переводе произведения Абдуллы Кадири «Мехробдан Чайан» или найденного эквивалента. Правильный выбор слов в процессе перевода поможет передать произведение так, как если бы оно было оригиналом, и еще больше повысить интерес читателя.

Abstract. This article is dedicated to the study of the correct and effective translation of words related to nouns in the English translation of Abdulla Qadiri's Mehrobdan Chayan, or the equivalent was found. The correct choice of words in the process of translation will help convey the work as if it were the original and increase the reader's interest even more.

Kalit so’zlar: transliteratsiya, transkripsiya, ekvivalent, omission, footnote.

Ключевые слова: транслитерация, транскрипция, эквивалент, пропуск, сноска.

Key words: transliteration, transcription, equivalent, omission, footnote.

KIRISH

Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari o'zbek adabiyotining eng yirik asarlaridan biri sifatida tanilgan. Bu asar nafaqat uning qiziqarli syujetlari va qahramonlari, balki turli tasviriy vositalari bilan ham ajralib turadi. Shuningdek asarda ishlatilgan ot so’z turkumlarining ko’pchiligi o’zbek tili milliy so’zlarini tashkil qiladi va tarjima jarayonda bunday so’zlarni tarjima qilishda bir qancha usullardan foydalanilgan.

“Mehrobdan chayon” o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishini aks ettirgan, milliy ruhda yozilgan romandir. O‘qigan insonda chuqur taassurot uyg‘otadi. Bugun Prezidentimiz

tashabbusi bilan milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda bu kabi yetuk asarlarning ahamiyati beqiyos.

Ayni shu jihatlar hisobga olinib, shu bilan birga, ushbu roman targ‘ibotini yanada kengaytirish maqsadida uni tarjima qilishga kirishdik. Qodiriy davridagi til murakkab bo‘lganligi bois tarjima jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmaslikning iloji yo‘q. Sababi, “Mehrobdan chayon”da uchraydigan leksik birliklarning ba‘zilari hozirda eskirgan, bugungi ona tilimizda ishlatilmaydi. Qolaversa, ba‘zi tushunchalarga ham atroflicha izoh berishga to‘g‘ri keldi. Bunda O‘zbek tilining izohli lug‘ati, O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi bizga tayanch manba bo‘ldi.¹

Transliteratsiya. Transliteratsiya bu (lotincha: trans — „qarshi“, „orqali“ va littera — „harf“) deb bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi.

Asarda “salla, mufti, manti, bek, mastava, atlas” kabi so‘zlar transkripsiya orqali berilgan. Ammo tarjimon bu so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozarkan yoniga yoki sahifaning past qismiga izoh qoldirmagan.

Transkripsiya (transcriptio ko‘chirib yozish) — yozuvning nutq tovushlari talaffuzini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan sun‘iy (shartli) turi; nutq bo‘laklari (tovush, bo‘g‘in, so‘z)ning tovushiy sifatlarini yozuvda aniq aks ettirish usuli.

Bu usulda **shariat** so‘zi **Shariah** holida berilgan.

Ekvivalent topish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish. Asarda bir necha so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan va ayrimlari asl nusxaga mos kelmagandek tuyuladi.

Chiqim vaji- spending a large amount deb berilgan. Buni asarda **outcome** deb o‘zgartirish mumkin, chunki asarning boshqa qismida **kelim ya’ni kirim** so‘zi **income** deb tarjima qilingan.

Rizosizliq so‘zi **angry** tarzida berilgan, buni fe‘l shakliga o‘girib **do not agree** deyilsa bo‘ladi chunki angry so‘zida jahldorlik hissi ko‘proq.

Fatvo so‘zi **permission** bilan berilgan, aslida fatvo tushuntirish, izoh berish degan ma’nolarni anglatadi bu so‘zni transkripsiya orqali berilgani ma’qulroq chunki yuqorida shariat so‘zi ham shunday tarzda berildi. Ammo yoniga albatta izoh qoldirib ketish kerak chunki o‘quvchi bu so‘zni tushunishda muammoga duch keladi.

Tog‘ora so‘zi **basin** bilan berilgan va bu sozda yuz-qo‘l yuviladigan rakvina tushuniladi, bu so‘ni **tub** so‘zi bilan berilganda o‘quvchiga yanada aniqroq bo‘lardi chunki asarda kir yuvish na’nosida kelgan.

Qovoq so‘msa pumpkin pies deb berilgan va “Ko‘p yog‘ qo‘shma qovoqning ta’mi buziladi” deganda “do not pour too much oil, it changes the taste of pies”

1. ¹ <https://fledu.uz/language/uz/the-scorpion-from-the-altar-yoxud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qanday-o%CA%BBgirildi-tarjimon-bilan-suhbat>

deyilgan ya'ni **qovoq pies** ga o'zgartirilgan.

Nuqson so'zi **lacks** deya tarjima qilingan, lekin kontekstga qarasak nuqson sifatida Solih Maxdumning yomon xarakterlari ya'ni ziqna va xasisligi ta'riflangan. Shuning uchun bu so'zni **bad behavior** yoki **character** deb berilsa yaxshiroq bo'lardi chunki lacks deyilganda birorta jismoniy kamchilik nazarda tutilishi mumkin.

Qo'liga qaram so'zi **prisoner** deb tarjima qilingan, prisoner orqali biz qamoqxonadagi asirni tushunamiz, bu so'z o'rniga **dependent to her husband** deb tarjima qilsak asl nusxadagidek yetkazishga harakat qilgan bo'lar edik, nazdimda.

Omission- so'z **tushurib qoldirish**. Bunday holatlarni asarda ko'plab kuzatishimiz mumkin. Masalan G'alaba bilan Buxoroga qaytdi gapida g'alaba so'zi tushurib qoldirilib shunchaki Buxoroga qaytdi deya tarjima qilingan. Menimcha bu gapning muhim qismlarini tushurib qoldirishdek tuyuldi va tarjimaga yomon ta'sir ko'rsatgan.

Footnote- sahifa **pastiga izoh qoldirish**. Asarning boshida **mudarris** so'zi **teacher** deya tarjima qilingan va 4 qismga kelib mudarris so'zi tarjimada transliteratsiya holatida berilib keyin footnote qoldirilgan. Aslida footnote biirnchi marta shu so'zni ishlatishda berilishi kerak va bitta so'z qanday yozilgan bo'lsa asar oxirigacha shunday tarjima qilinishi kerak.

Bek so'zi ham birinchi marta qo'llanilganda transliteratsiya holatida va keyingisida transkripsiya orqali **bey** deb o'zgargan.

Ushbu tahlil Qodiriy asarlaridagi qadimiy va diniy ot so'z turkumlarini yanada chuqurroq bilib olishga va tarima jarayonida qanday to'g'ri qo'llanilishiga yordam beradi.

Xulosa. Abdulla Qodiriyning Mehrobdan Chayon asarining inglizcha tarjimasida ot so'z turkumiga xos so'zlar qanchalik to'g'ri tarjima qilingani va o'quvchiga qay darajada yetkazilgani o'rganildi. Ba'zi bir so'zlarda noto'g'ri ekvivalentlar topildi va tarnskripsiya qilib berilgan so'zlarning ko'pchiligida ozoh qoldirilmagani aniqlandi.

Bugungi kunda o'zbek tarjimashunosligi yangi bosqichda rivojlanmoqda, desak mubolag'a emas. Sababi yaqin-yaqingacha xorijiy tillardan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan xorijiy tillarga adabiyotlar rus tili orqali tarjima qilingan. Hozirgi kunda esa bebaho asarlarimiz o'zbek tilidan xorijiy tillarga, xususan, ingliz, fransuz, koreys, rus, xitoy va boshqa tillarga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmoqda. Bu, albatta, quvonarli hol. Chunki asliyatdan qilingan tarjimalarda milliylik, ona tilimizdagi bo'yoqdorlik, xalqimizning urf-odat va an'analari yanada aniqroq, yaqqolroq namoyon bo'ladi. Biz tarjimon hamkasblarimiz bilan shu kungacha Qodiriyning "O'tkan kunlar", Oybekning "Navoiy", G'afur G'ulomning "Shum bola" asarlarini ingliz tiliga tarjima qildik va nashr etishga muvaffaq bo'ldik. Kelgusida o'zbek adabiyotining sara namunalari bo'lmish "Kecha va kunduz", "Yulduzli tunlar", "Humoyun va Akbar", "Dunyoning ishlari" kabi asarlarni ham xorijiy tillarga o'girib, chop qilishni rejalashtirganmiz.

Zero, tarjima xalqlar o'rtasidagi adabiy ko'prikdir, desak yanglishmaymiz.²

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" asari
2. The Scorpion from the Altar: Novel. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
4. <https://fledu.uz/language/uz/the-scorpion-from-the-altar-yoxud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qanday-o%CA%BBgirildi-tarjimon-bilan-suhbat/>

2. ² <https://fledu.uz/language/uz/the-scorpion-from-the-altar-yoxud-mehrobdan-chayon-romani-ingliz-tiliga-qanday-o%CA%BBgirildi-tarjimon-bilan-suhbat/>